

AHMAD YASSAVIY HAYOTI VA IJODINING O'RGANILISHI

Raxmatova Gulbahor

Navoiy davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.

M.Xudoyorova

Ilmiy rahbar: f.f.f.d, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14864156>

Annotatsiya. Ushbu maqolada nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotshunos olimlarining Ahmad Yassaviy hayoti va ijodiga oid tadqiqot natijalari o'laroq keltirilgan bir qancha xulosalar bilan qisqacha tanishtirilgan.

Kalit so'zlar: hikmat, tasavvuf, oyat, hadis, pir, murshid, hol, ma'naviy tarbiya, fikriy tarbiya, talmeh.

STUDY OF THE LIFE AND WORK OF AHMAD YASSAVI

Abstract. This article briefly introduces a number of conclusions drawn as a result of research on the life and work of Ahmad Yassavi by not only Uzbek but also world literary scholars.

Keywords: wisdom, mysticism, verse, hadith, pir, murshid, status, spiritual education, intellectual education, talmeh.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЖИЗНИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АХМАДА ЯССАВИ

Аннотация. В данной статье кратко излагается ряд выводов, сделанных на основе исследований жизни и творчества Ахмада Яссави не только узбекскими, но и зарубежными литературоведами.

Ключевые слова: мудрость, суфизм, стих, хадис, пир, муриид, статус, духовное образование, интеллектуальное образование, талме.

Nafs ila dunyoga dil bergan fosiqlar, siz bu kun,
Yassaviy xok poyidin aylab oling tummorlar.

Abdulla Oripov

Bugungi davr adabiyotshunosligida tasavvufiy adabiyotning o'rganilish jarayonini kuzatar ekanmiz, "Devoni hikmat" asari bilan nafaqat turkiy xalqlar, balki yana bir qancha dunyo xalqlari adabiyotshunoslari qiziqqanlarini aniqlash mumkin. Olib borilgan tadqiqotlarning ko'pchiligi mutasavvif ijodkorning hayoti va ijodi bilan aloqador. Masalan, Yassaviyning tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumotlar mavjud bo'lmasa-da, uning Sayramda tug'ilgani va yetti yoshida otasi Shayx Ibrohimdan yetim qolganligi, qolaversa, ijodkor tug'ilgan yerini "ul muborak Turkistondin" deya ta'riflab o'tgani kabi ma'lumotlarni manbalarda uchratishimiz mumkin. Shoir dastlabki tahsilni mashhur turk mashoyihi Arslonbob qo'lida olganligi haqidagi ma'lumotlar hikmatlariga tayanilib, keltirilgan.

Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdi,
Har sir ko‘rib parda birla bukib yopdi.
Bihamdilloh, ko‘rdim dedi, izim o‘pdi,
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga

Ahmad Yassaviy devoni turkiy adabiyotdagi bebaho manbalardan biri bo‘lib, unda nafaqat islom dini haqida tushunchalar, tasavvufiy qarashlarga emas, balki o‘sha davrdagi turkiy xalqlar hayot tarzlari va ijtimoiy tartiblari ham yoritib o‘tilgani alohida ahamiyat kasb etadi. Yassaviy hikmatlaridagi aniqlik va tushunarlik turkiy xalqlar orasida islomni anglash va ezguliklarga ergashishga beqiyos hissa qo‘shgan.¹

Hikmatlar tahliliga kirishishdan avval “hikmat” atamasiga aniqlik kiritish zarurati tug‘iladi. “Qur’onda yigirma marta, Payg‘ambar hadislarida esa undan ham ziyoda zikr etilgan “hikmat” kalimasi payg‘ambarlik, hadis, sunnat, ilm-u amal qol-u holdagi aniqlik, adolat, fahm-u farosat, aql-u idrok, fiqh, nozik ma‘rifat, tafakkur, irfon, ilohiy nur, vara’, taqvo, toat, din, ruhiy halovat, ilohiy ishorat, ladun ilmi va pand-u nasihat kabi ma‘nolarni bildiradi”².

Ahmad Yassaviy hikmatlari Islom dini tayangan ikki ustun: Qur’on oyatlari, ikkinchisi Payg‘ambar a.s. sunnatlari bo‘lgan hadislardan oziqlangan. Shoir o‘z hikmatlarida bu ikki manbaga asoslanib, imkon qadar oyat-u hadislar mazmunini tushuntirgan. Bu haqida shoirning o‘zi shunday yozadi.

Mani hikmatlarim koni hadisur,
Kishi bo‘y eltmasa bilgil xabisdur.

Mani hikmatlarim farmoni Subhon,
O‘qub uqsang hama ma‘niyi Qur’on.

Tangri taolo so‘zin, Rasululloh sunnatin,
Inonmag‘an ummatin ummat demas Muhammad.

Ummat bo‘lsang g‘ariblarga tobe bo‘lg‘il,
Oyat, hadis har kim oytsa some bo‘lg‘il.”

Mustaqillik yillarida Ahmad Yassaviy hikmatlari manbalari haqidagi ilmiy tadqiqotlar anchagina yaratilgan.

¹ И.Хаккулов. Аҳмад Яссавий ҳикматлари. Тошкент, 6-б

² Çantay, H.B., Kur’an-I Hakım ve Meal-I Kerim, Istanbul 1959, I, 76, dipnot 231.

Bular orasida vatandoshlarimiz Ibrohim Haqqulov, Nodirxon Hasan hamda Ibrohim Shaner, Navzat Oshiq, Mustafo Tahrari, Elxon Genj, Alfina Sibg'atullina kabi xorij ilm fidoyilari bir qancha o'rganishlar olib borganlar. Xususan, doktor Ibrohim Shaner kuzatuvlari natijasi o'laroq quyidagilarni aytadi: "Hikmatlarda yigirma sakkizta oyatga talmeh keltirilgan.

Tadqiqotimizda ularning eng asosiylariga diqqatni qaratmoqchimiz:

Yunus, Yusuf va Ya'qub alayhissalomlar

Yunusdek daryo ichra baliq bo'lsam,

Yusufdek quduq ichra vatan qilsam.

Ya'qubdek Yusuf uchun ko'p yig'lasam,

Bu ish birla yo Rab seni topgaymuman.

Yassaviy bu qit'ada quyidagi uch oyatga ishora qiladi:

1. "Keyin ani baliq yutdi va ul malomatg'a mustaxiq erdi" (Saffot, 37/142).
2. "Dedi bir deguvchi alardin: "O'ldirmanglar Yusufni va tashlanglar ani bir qorong'u quduqg'a, toki olib ketsun ani qaysi bir yo'lovchi, agar qilmoqchi bo'lsangizlar buni" (Yusuf, 12/10).
3. "Va yuz o'girdi alardin va dedi: "Ey afsus Yusufg'a!" Va oqardi ikki ko'zi g'mdin va ul g'mdin to'lg'on erdi" (Yusuf, 12/48).³

Shuningdek yana bir professor Mustafo Tahrari o'zlarining "Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat"ida diniy-tasavvufiy asoslar" nomli maqolasida mazkur fikrlarni aytib o'tadilar:

"Hikmatlardagi shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat tushunchalari diniy-tasavvufiy bilimlarga shomil to'rt muhim istilohdir. Bu istilohlar ifodalagan ma'nolarni "pir o'laroq etagidan tutib", "murshid" huzurida ma'naviy va fikriy tarbiya – sayrru sulukdan o'tib, fe'lan "hol"ga erishgan kishi, nazariy-aqliy ilmlardan farqli bo'lgan "ilohiy ilm va hikmat" deya talqin etish mumkin:

Po'sti imon shariatdur mag'zi tariq,

Tariq kirgan Haqdin ulush oldi, do'stlar.

Tariqatdir bu yo'l otin bilsa darvesh,

Ma'rifatni matoidin olsa darvesh.

O'zga yo'llar bodi havo sonsa darvesh,

Haqiqatni maydonida er ul bo'lur."⁴

Xoja Ahmad Yassaviyning hikmatlari tatar adabiyotiga ham sezilarli hissa qo'shganligini Alfina Sibg'atullina maqolalaridan birida keltirib o'tadilar:

³ И.Хаккулов, Н.Хасан, А.Бектош. Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёти, ижоди ва анъаналари. Тошкент, 2001, 202-203 б

⁴ И.Хаккулов, Н.Хасан, А.Бектош. Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёти, ижоди ва анъаналари. Тошкент, 2001, 226-б

“Tatar xalqining ming yillik adabiyot gulshanida yetishgan “so‘filik mevalari” turkiy tasavvuf deb nomlangan ulkan va hosildor bir daraxtning samarasi bo‘lib, uning bunyodkori esa avliyo Xoja Ahmad Yassaviy.

Tatar adabiyotining eng go‘zal namunasi bo‘lgan “Qissai Yusuf” asari bitilgan bir paytda (XIII asr) Ahmad Yassaviy va uning xalifasi Sulaymon Boqirg‘oniy- Hakim Otaning adabiyot maktabi bu atrofda quvvat topib ulgurgan edi. “Qissai Yusuf”ning muallifi Qul Ali, shubhasiz, bu mutasavviflarning fikriy g‘oyasi va asarlari bilan tanish bo‘lgan, ulardan ijodiy ta’sirlangandir.”⁵

Ahmad Yassaviy devoni tadqiqi davomida bir qancha jihatlarni o‘rganib, tahlilga tortgan boshqa bir qardosh ilm fidoyisi Elxon Genj o‘zining mulohazalaridan birida quyidagi muhim ma’lumotni aytganlar:

“Yassaviy turkiy she’riyatga birinchi bo‘lib ishq, vahdat va muhabbat sharobi, mast bo‘lmoq, vujud shahri, ishq dardi, ishq maqomi, ishq da’vosi, nafs, ishq do‘koni, alast majlisi, mosivo, o‘lim va dunyoning foniyligi, ishqsizlar, tajalli, samo‘ va raqs fazilati, basirat, g‘ariblik kabi tasavvufiy atamalarni olib kirdi. U o‘z fikr-qarashlarini ilgari surish bilan bir qatorda o‘sha davr ijtimoiy muammolarini ham tanqid qiladi.”⁶

“O‘z davri farzandi sifatida islom dinini ko‘rsatmalari va islomiy aqidalarga tayangan.”. Shoir hikmatlaridan birida bunday satrlarni o‘qiymiz:

Xushlamoydurlar olimlar bizni oyg‘on turkini,
Oriflardain eshitsang, ochar ko‘ngil mulkini.
Oyat, hadis, ma’nosi turki bo‘lsa muvofiq,
Ma’nisiga yetganlar, yerga qo‘yar bo‘rkini.⁷

Tadqiqotlarni kuzatish asosida quyidagi tasnifni keltirish mumkin:

1. Vatandoshimiz Ibrohim Haqqulov Yassaviyning nafaqat ijodi balki hayoti bilan ham qiziqib izlanishlar olib borganlar;
2. Xorijlik olimlarning tadqiqotlariga to‘xtalar ekanmiz Ibrohim Shanerning “Yassaviy hikmatlarining manbai o‘laroq oyatlar xususida” nomli maqolasida oyatlardan keltirilgan iqtiboslar hamda foydalanilgan talmehlarning hikmatlarga bergan o‘zgacha ta’siri va jilosi haqida to‘xtaladi;
3. Ilohiyot fanlari nomzodi Navzat Oshiq “Yassaviy hikmatlari manbaini tashkil etuvchi hadislar va sunnat madaniyatining hikmatlarga ta’siri” mavzusidagi maqolasi orqali “hikmat” atamasiga alohida to‘xtalib tahlil qilgan;

⁵ И.Хаккулов, Н.Хасан, А.Бектош. Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёти, ижоди ва аъъаналари. Тошкент, 2001, 242-б

⁶ И.Хаккулов, Н.Хасан, А.Бектош. Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёти, ижоди ва аъъаналари. Тошкент, 2001, 239-б

⁷ И.Хаккулов. Аҳмад Яссавий ҳикматлари. Тошкент, 6-б

4. Professor Mustafo Tahrari ham o'z maqolalaridan birida Yassaviy hikmatlarida diniy-tasavvufiy asoslarni o'rganar ekan, to'rt muhim omil sanalmish shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat tushunchalarini ham nazardan chetda qoldirmagan;

5. Elxon Genjning olib borgan o'rganish natijalaridan biri sifatida Yassaviyning turkiy she'riyatga olib kirgan tasavvufiy tushunchalarini aytish mumkin;

6. Xoja Ahmad Yassaviy tatar adabiy olamiga ham o'z ta'sirini ko'rsatganini va hattoki alohida o'rin kasb etishini Alfina Sibg'atullinaning ilmiy tadqiqatlari natijasi o'laroq ko'rishimiz mumkin.

REFERENCES

1. И.Хаққулов. Аҳмад Яссавий ҳикматлари. Тошкент, 1991.
2. И.Хаққулов, Н.Ҳасан, А.Бектош. Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёти, ижоди ва анъаналари. Тошкент, 2001.
3. Ф.Ашрафхўжаев, М.Хўжаев, З.Жўраев. Хожа Аҳмад Яссавий ва Яссавийлар тарихи. Тошкент, 2021.